

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIJORAT BANKLARIDA MIKROMOLIYAVIY XIZMAT KO'RSATISH

Adhamov Umidjon Yorqinjon o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Bank ishi yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Hozirgi davrda, O'zbekiston Respublikasida Tijorat banklari faoliyatida rivojlanib xukukiy asoslar xam takomillashib bormokda. Maqolada mamlakatimiz tijorat banklarida mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, mikromoliyaviy xizmat, jismoniy shaxs, metod.

KIRISH

Tijorat banklari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlarni kursatishdakreditlashning birlamchi qonunchilki asoslari bo'lib, quyidagilar me'yoriy hujjat hisoblanadi:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni.

Undan keyingi o'rinda ikkilamchi me'yoriy-huquqiy asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga, shu jumladan, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga oid bo'lgan Farmonlari va Qarorlari turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrocreditlash tizimini yanada kengaytirish vasoddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida imtiyozli mikrocreditlashning asosiy vazifalari belgilab berildi (kichik tadbirkorlik, eng avvalo, oilaviy va xususiy tadbirkorlik sohasida yangi ish o'rinlari tashkil etish; imtiyozli kreditlar berish orqali o'rta maxsus, kasb- hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan jismoniy shaxslar, mehnat organlarida ro'yxatga olinganband bo'lmagan fuqarolar, oilaviy va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan aholi, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tavsiyanomalari bo'yicha ishga joylashishga ehtiyojmand bo'lgan boshqa shaxslar uchun ularni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish maqsadida mikromoliyaviy xizmatlardan oson foydalanishlarini maksimal darajada ta'minlash; aholining kam ta'minlangan va hojatmand qatlamlari daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini kuchaytirish).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar vaqtinchalik aylanma mablag'larga muhtoj korxonalarini kreditlash vazifasini ham amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyotini kredit bozorisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, sanoat va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirishda kredit muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonunida (2006 yil 11 iyun) mikrokredit, mikroqarz va mikrolizingning shartlari belgilab berilgan.

Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonunga o'zgarishlar kiritilgan bo'lib unga ko'ra:

mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 300 million so'm miqdoridan oshmaydigan mutlaq qiymatda beriladi shuningdek, mikroqarz banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga 50 million so'mdan oshmaydigan mutlaq qiymatda berilishi va mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 600 million so'mdan oshmaydigan mutlaq qiymatda berilishi belgilandi.

Mazkur qonun respublikada aholining va tadbirkorlik sub'ektlarining mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, to'lov qobiliyatini oshirish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga yordam beradi.

Shunisi ahamiyatliki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777-sonli "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Mazkur Qarorga muvofiq, mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasidasezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan "Har bir oila-tadbirkor" dasturi amalga oshiriladi.

"Har bir oila-tadbirkor" dasturining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

- tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko'rsatish;

- kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi sub'ektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish;

- qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik,

qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda, mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug'ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini – klasterlar tashkil etish;

– joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko'rsatiladigan xizmatlar ko'laminitubdan kengaytirish, tadbirkor oilalarning ishlab chiqargan mahsulotlari savdosini tashkil qiluvchi bozor infratuzilma ob'ektlari, xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalarini barpo etish.

Shuningdek, Prezidentning 3777-sonli Qarorida tijorat banklari tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlarning quyidagi shartlari belgilab berildi:

– eng kam ish haqining yuz ellik baravarigacha miqdorda – oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar rahbarlari va mahalla fuqarolar yig'ini tavsiyanomalari;

– eng kam ish haqining ming baravarigacha miqdorda – belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol- mulklar garovi, Jamg'armaning kafilligi va qonun hujjatlaridadoirasidagi boshqa ta'minot turlari;

– eng kam ish haqining ming baravaridan ortiq miqdorda – tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiyaviy loyihalarini kreditlashda qonun hujjatlari doirasida belgilangan ta'minot turlariga asosan ajratiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Mazkur imtiyozli kreditlar ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo'lgan sub'ektlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish imkonini beradi va tadbirkorlik faoliyati rivojida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2007. – 520 b.; O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni. 2019 yil 11 nayabr. 154-I-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli Qarori. Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №6. – 71-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to'g'risida”gi qonuni. 2006 yil 11 iyun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 37-38-son, 369-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda; 2014 y., 36-son, 452-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2018 yil 7 iyun. PQ-3777. “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida//QHMMB: 07/18/3777/1325-son.